



## FARG‘ONA VILOYATI QO‘SHTEPA TUMAN HOKIMINING QARORI

2022 - yil 7 - may

115-11-157-Q/22

Qo‘shtepa tuman hokimligi

### **Viloyat hokimining 2022-yil 30-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-apreldagi PQ-214-sonli qarori ijrosini ta’minlash to‘g‘risida”gi 181-11-0-Q/22-sonli qarori to‘g‘risida**

Kasanachilikni rivojlantirish orqali ishsiz, aholi ayniqsa xotin-qizlar, mehnatga layoqatli nogironligi bo‘lgan shaxslarning ish bilan bandligiga ko‘maklashish, ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatishni yanada kengaytirish va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-apreldagi PQ–214-son qarori hamda viloyat hokimining shu mazmundagi 181-11-0-Q/22-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida,

### **Q A R O R   Q I L A M A N:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-apreldagi “Kasanachilikni rivojlantirish asosida aholi bandligini ta’minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–214-son qarori hamda viloyat hokimining shu **mazmundagi 181-11-0-Q/22-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.**

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ushbu qaroriga muvofiq:

2022-yil 1-iyuldan boshlab kasanachilikni mehnat shartnomasi bilan bir qatorda ishlarni bajarish, tovarlar ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko‘rsatish haqidagi fuqarolik-huquqiy shartnomalar, shu jumladan, pudrat shartnomasi asosida tashkil etishga ruxsat etilganligi hamda 2022-yil uchun oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida ajratilayotgan kreditlarning kamida 500 milliard so‘mini kasanachilikni rivojlantirish bo‘yicha

loyihalarni moliyalashtirishga yo‘naltirganligi;

**2022-yil 1-iyuldan 2025-yil 1-yanvarga qadar:**

Kasanachilarga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i kasanachilikdan olinadigan jami daromadni 50 foizga, biroq, hisobot davri (bir oy)da ko‘pi bilan bir million so‘mgacha kamaytirgan holda hisoblanishi;

Kasanachilar ijtimoiy soliq to‘lovini o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar uchun belgilangan tartibda amalga oshirilishi;

Jamoat ishlari jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan olis va chekka hududlardagi mahallalarda kasanachilikni tashkil etgan tadbirkorlik sub’ektlariga har bir kasanachining dastlabki uch oy davomidagi kasanachilik faoliyati uchun bir oylik o‘rtacha daromadi miqdorida bir martalik subsidiya ajratilishi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-avgustdagi “Mahallalarda tadbirkorlikni yanada qo‘llab-quvvatlash va tadbirkorlik sub’ektlari bilan aholi o‘rtasida kooperatsiyani rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–5214-son qaroridagi "Yetakchi" tadbirkorlik sub’ektlariga Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab – quvvatlash davlat jamg‘armasi tomonidan kredit summasining 75 foizi miqdorigacha kafillik berish bo‘yicha tartib mazkur qarorga 1-ilovada ko‘rsatilgan mahallalarda faoliyat yurituvchi kasanachilar soni kamida 10 nafar bo‘lgan tadbirkorlik sub’ektlariga ham tatbiq etilishi;

Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi hisobidan tadbirkorlik sub’ektlariga "Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoki "Ijtimoiy himoya yagona reestri"da bo‘lgan va kasanachilik bilan shug‘ullanayotgan fuqarolarga asbob-uskunalar xarid qilib berish xarajatlarining 50 foizgacha bo‘lgan qismi, biroq, bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravarigacha miqdorida subsidiya ajratilishi;

Bunda, subsidiya tadbirkorlik sub’ekti va tuman aholi bandligiga ko‘maklashish markazlari o‘rtasida tuziladigan quyidagi shartlarni nazarda tutuvchi ijtimoiy shartnomaga asosan ajratilishi belgilanganligi;

Tadbirkorlik sub’ekti tomonidan kasanachiga buyurtma berilayotgan

ish turiga qarab, subsidiya hisobiga xarid qilingan asbob-uskunalar kasanachiga bepul berilishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

### 3. Viloyat hokimining mazkur qarori bilan:

Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari (Urinboyev), Bandlik bosh boshqarmasi (Qo'chqorov), Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish boshqarmasi (Raxmonov), Davlat moliyaviy nazorati boshqarmasi (Jo'rayev), tuman (shahar) aholi bandligiga ko'maklashish markazlari va mahalladagi tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimi yordamchilari bilan birgalikda kasanachilarning ish faoliyati samaradorligini doimiy tarzda monitoring qilib borish hamda foydalanilmayotgan asbob-uskunalariga ajratilgan subsidiyalarni nazoratga olishi;

viloyat hokimining birinchi o'rinbosari (Urinboyev), Bandlik bosh boshqarmasi (Qo'chqorov), Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish boshqarmasi (Raxmonov) shahar va tuman hokimliklari bilan birgalikda ikki hafta muddatda har bir hudud uchun alohida kasanachilikni rivojlantirish asosida aholi bandligini ta'minlashga oid chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishi;

kasanachilikni tashkil etgan tadbirkorlik sub'ektlariga rag'batlantirish choralari qo'llaniladigan olis va chekka hududlardagi mahallalar ro'yxati 1-ilovaga, mazkur qarorda belgilangan chora-tadbirlarni hududlarda tatbiq etish buyicha ma'sullar ro'yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

bandlik bosh boshqarmasi (Qo'chqorov) ish beruvchilarning buyurtmasi asosida kasanachilarni "Ishga marhamat" monomarkazi, tuman (shahar) kasb-hunarga o'qitish markazlari va mahalla aholisini kasb-hunarga o'qitish maskanlarida o'qitishni tashkil etishi;

Bunda:

Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman hokimining yordamchilari va tuman aholi bandligiga ko'maklashish markazi xodimlari

kasanachilik orqali fuqarolarni ishga olish istagida bo'lgan tadbirkorlarni aniqlaydi va faoliyat yo'nalishi kesimida ularning ro'yxatini shakllantirishi;

tuman aholi bandligiga ko'maklashish markazi xodimlari tadbirkorlar tomonidan taklif etilayotgan kasanachilik faoliyati bilan shug'ullanish uchun kasblar ro'yxatini shakllantirishi;

kasanachilarni o'qitish xarajatlari Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan qoplab berilishi;

kasanachilik bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan ishsiz shaxslar "Ishga marhamat" monomarkazlari, kasb-hunarga o'qitish markazlari va mahalla aholisini kasb-hunarga o'qitish maskanlarida talab etiladigan kasblarga o'qitilishi nazarda tutilganligi;

2023-yil 1-yanvardan boshlab nodavlat ta'lim muassasalarida davlat buyurtmasi asosida ish bilan band bo'lmagan fuqarolarni kasanachilik yo'nalishida kasbga o'qitishning quyidagi tartib joriy etilganligi:

Farg'ona shahridagi "Ishga marhamat" monomarkazi huzuridagi malakani baholash markazlari kasbiy malaka talablarini ishlab chiqishi va salohiyatli ta'lim muassasalariga davlat buyurtmasini berilishi;

o'quv kurslarini tugatgan fuqarolarning bilim darajasi malakani baholash markazlari tomonidan aniqlanishi va shu asosda ularga malaka sertifikatlari berilishi;

malaka sertifikatini olgan fuqarolarga mehnat faoliyatini boshlashi uchun o'qish xarajatlariga teng miqdorda malakani baholash markazlari tomonidan subsidiyalar berilishi;

Bandlik bosh boshqarmasi (Qo'chqorov)ga:

Tashkiliy tuzilmasining umumiy shtatlar soni doirasida bandlik bosh boshqarmasi tuzilmasida kasanachilik faoliyatini rivojlantirish va muvofiklashtirishga ma'sul bo'lgan bo'lim tashkil qilishi;

kasanachilik sohasida yagona davlat siyosati yuritilishini ta'minlash va hududlarning ixtisosligidan kelib chiqib, kasanachilik faoliyati bo'yicha maqsadli dasturlar ishlab chiqishi;

kasanachilikni rivojlantirish bo'yicha ishlarni samarali tashkil etish orqali norasmiy bandlikni qisqartirish va mahallalarda ish bilan band bo'lmagan fuqarolarni kasanachilik faoliyatiga jalb qilishi;

ishsiz fuqarolarni kasanachilik faoliyati bo'yicha kasb-hunarga o'qitish ishlarini tashkil etishi;

kasanachilik faoliyatini rivojlantirish yuzasidan ajratilayotgan subsidiyalarning maqsadlilikini ta'minlash va maqsadsiz foydalanilgan subsidiyalarni Davlat budjetiga qaytarilishini ta'minlashi;

ijtimoiy muhofazaga muhtoj aholi qatlamlariga kasanachilik bilan shug'ullanishlari uchun imtiyozlar berish bo'yicha takliflar ishlab chiqishi;

Davlat soliq boshqarmasiga ish beruvchi va kasanachi o'rtasida tuzilgan mehnat, fuqarolik-huquqiy yoki pudrat shartnomalarini Davlat soliq qo'mitasining Yagona elektron shartnomalar axborot portalida majburiy tartibda ish beruvchi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilishini nazoratga olish vazifalari yuklatilganligi inobatga olinsin.

4. Tuman hokimligi matbuot xizmati (Y.Qosimova) va "Istiqbol yo'li" gazetasi tahririyati (U.Xudoyberganova)ga ushbu qarorning mazmun-mohiyatini ommaviy axborot vositalarida va internet tarmog'ida keng yoritish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib tuman aholi bandligiga ko'maklashish markazi (M.Eminov) hamda Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi (A.Usmonov) belgilansin.

6. Qaror ijrosini nazorat qilish va ijro uchun mas'ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish tuman hokimining birinchi o'rinbosari A.Yunusov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



I.V.Novikov